

NEMIS TILI DARSIDA JUFTLIKDA ISHLASHNI RAQAMLI HAMKORLIK ASOSIDA TASHKIL ETISH

TOLIPOVA SHAXLOXON BAXROMJON QIZI

Z.M.Bobur nomidagi Andijon

davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0002-6829-3818>

shakhlo2608@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis tili darslarida juftlikda ishlashni raqamli hamkorlik asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vositalarning o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, hamkorlik va til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Juftlikda ishlashning samaradorligini oshiruvchi metod va texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli muhitda o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari nemis tili ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nemis tili ta'limi, juftlikda ishlash, raqamli hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, interfaol ta'lim, raqamli texnologiyalar, til o'rganish.

KIRISH

Bugungi kunda ta'limni raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Xususan, nemis tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularni hamkorlikda ishlashga jalb etish hamda ta'lim jarayonining interfaolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Juftlikda ishlash texnologiyasi o'quvchilarning muloqot qilish, fikr almashish va til materiallarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini tortayotgan muammolar orasida amaliyotda juftlikda ishlashni samarali tashkil etishda raqamli vositalardan foydalanish metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ko'zga yaqqol tashlanadi, o'quvchilarning raqamli hamkorlik ko'nikmalarining turlicha rivojlanganligi hamda mavjud elektron platformalarning didaktik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani chet tili o'qitish metodikasida muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Shu munosabat bilan hozirgi kunda nemis tili darslarida juftlikda ishlashni raqamli hamkorlik asosida tashkil etishning samarali yo'llarini aniqlash va ilmiy-metodik jihatdan asoslashga katta e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi nemis tili darslarida raqamli hamkorlik vositalari asosida juftlikda ishlashni tashkil etish

metodikasini takomillashtirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishishimiz uchun oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yamiz:

- juftlikda ishlash va raqamli hamkorlikning nazariy asoslarini tahlil qilish,
- nemis tili ta'limida qo'llanilayotgan raqamli platformalar hamda vositalarning didaktik imkoniyatlarini o'rganish,
- shuningdek, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

ASOSIY QISM

Mazkur masala hozirgi kunga qadar jahon olimlarining diqqat markazidan joy olgan. Jumladan, hamkorlikda o'qitish nazariyasining asoschilari D.Johnson va R.Johnson o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro bog'liqlik bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar¹. Ularning fikricha, juftlik va kichik guruhlarda ishlash natijasida o'quvchilarda mas'uliyat, muloqot va refleksiya ko'nikmalari shakllanadi. R.Slavin hamkorlikda o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqib, juftlikda ishlash o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilashini ta'kidlagan². Raqamli hamkorlik muammosi G.Stahl, T.Koschmann va D.Suthers tomonidan Computer-Supported Collaborative Learning (CSCL) konsepsiyasi doirasida tadqiq etilgan³. Olimlar axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etilgan hamkorlik bilim yaratishning yangi shakllarini yuzaga keltirishini ko'rsatganlar.

Chet tillarini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish masalalari bugungi kunda butun dunyoda globallashtirishda, xususan tadqiqotchilar M.Warschauer va C.Chapelle tomonidan ushbu masala chuqur o'rganilgan. Tadqiqotchilar internet texnologiyalari va onlayn kommunikatsiya vositalari til o'rganish jarayonini faollashtirishini qayd etganlar⁴. Nemis tilini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha N.Würffel tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U Moodle, Wiki va boshqa onlayn platformalardan foydalanish talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishini isbotlagan⁵.

1-jadval. Tadqiqotlarning qiyosiy tahlili⁶.

Olimlar	Tadqiqot yo'nalishi	Afzalliklari	Cheklangan jihatlari
D.Johnson R.Johnson	Hamkorlikda o'qitish		

¹ Johnson D.W., Johnson R.T. Making Cooperative Learning Work // Theory Into Practice. 1999. Vol. 38. № 2. P. 67–73.

² Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. Boston, 1995. P. 15–22.

³ Stahl G., Koschmann T., Suthers D. Computer-Supported Collaborative Learning: An Historical Perspective. Cambridge, 2006. P. 409–426.

⁴ Warschauer M. Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice. Cambridge, 2000. P. 45–53.


⁵ Würffel N. Lernen in virtuellen Gruppen. Baltmannsweiler, 2007. S. 88–94.

⁶ Mualliflik jadvali.

R.Slavin	Kooperativ ta'lim		Onlayn vositalar ko'rib chiqilmagan
G.Stahl	Computer-Supported Collaborative Learning–kompyuter texnologiyalari yordamida qo'llab-quvvatlanadigan hamkorlikda o'qitish va o'rganish		Til o'qitishga
M.Warschauer	Computer-Assisted Language Learning – kompyuter yordamida til o'qitish va o'rganish)	Onlayn til o'rganish	
N .	Nemis tili va AKT		Juftlikdagi faoliyat alohida o'rganilmagan

Jadvaldan ko'rinadiki, mavjud tadqiqotlarda hamkorlik va raqamli texnologiyalar alohida o'rganilgan bo'lsa ham, nemis tili darslarida juftlikda ishlashni raqamli hamkorlik asosida tashkil etishning integrallashgan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bizning yondashuvimizning yangiligi shundan iboratki, unda juftlikdagi faoliyat, kommunikativ yondashuv, raqamli platformalar, refleksiya va baholash yagona tizimga birlashtiriladi.



1-rasm. Juftlikdagi faoliyatni raqamli hamkorlik asosida tashkil etish modeli.

Mazkur model D.Johnson va R.Johnsonning hamkorlik nazariyasini G.Stahlning axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qo'llab-quvvatlanadigan hamkorlikda o'qitish va o'rganish konsepsiyasi bilan integratsiyalash imkonini beradi. Misol tariqasida taklif etilayotgan modelga asoslanib quyidagi mavzuni berishimiz mumkin. "Umweltschutz" mavzusida Padlet platformasida quyidagi vazifalar beriladi: Dastlab juftlik ekologik muammolar bo'yicha fikrlarini yozadi, keying jarayonda esa, sherigi javob beradi, yakunda umumiy xulosa tayyorlanadi, bu o'qituvchi real vaqt rejimida kuzatadi.

Taklif etilayotgan model mavjud yondashuvlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- a) hamkorlik va raqamli texnologiyalar integratsiyalashgan;
- b) o'quvchi faoliyatining barcha bosqichlari nazorat qilinadi;
- c) real vaqt rejimida o'zaro ta'sir kuchayadi; d) kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda raqamli kompetensiya ham rivojlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari nemis tili darslarida juftlikda ishlashni raqamli hamkorlik asosida tashkil etish o'quvchilarning kommunikativ faolligi, mustaqil fikrlashi va til kompetensiyalarini rivojlantirishini ko'rsatdi. Raqamli platformalardan foydalanish hamkorlik samaradorligini oshirib, ta'lim jarayonini interaktivlashtiradi. Taklif etilgan modelning ustunligi shundaki, u hamkorlikda o'qitish nazariyasi hamda raqamli ta'lim texnologiyalarini yagona metodik tizimga birlashtiradi. Bu esa nemis tili darslarida o'quvchilarning til va raqamli kompetensiyalarini parallel rivojlantirish imkonini beradi.

Tavsiyalar

1. Nemis tili darslarida Google Docs, Padlet va Canva platformalaridan muntazam foydalanish.
2. Juftlikdagi topshiriqlarni real kommunikativ vaziyatlarga asoslash.
3. O'zaro baholash va refleksiya elementlarini darsning majburiy qismi sifatida qo'llash.
4. O'qituvchilar uchun raqamli hamkorlik metodikasi bo'yicha treninglar tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Johnson D.W., Johnson R.T. Making Cooperative Learning Work // Theory Into Practice. – 1999. – Vol. 38, № 2. – P. 67–73.
2. Johnson D.W., Johnson R.T. An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning // Educational Researcher. – 2009. – Vol. 38, № 5. – P. 365–379.
3. Stahl G., Koschmann T., Suthers D. Computer-Supported Collaborative Learning: An Historical Perspective // The Cambridge Handbook of the Learning Sciences. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 409–426.
4. Warschauer M. Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 256 p.
5. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 213 p.
6. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. – Boston: Allyn and Bacon, 1995. – 248 p.
7. Würffel N. Lernen in virtuellen Gruppen. – Baltmannsweiler: Schneider Verlag Hohengehren, 2007. – 289 S.